	Qo`shimcha adabiyotlar: 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlat strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. 3. Raximov M. Iqtisodiyot sub`ektlari moliyaviy holatining tahlili. Uslubiy qo'llanma. T.; Iqtisod-Moliya, 2015. -156 b. 4. Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. T.:Print Line Group, 2017.-533 b. **Internet saytlari.** www.stat.uz. www.buhgalt.ru. www.ziyonet.uz. www.books/bankir.ru.
8	Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ RD-16 - 03)
9	Fan/modul uchun mas`ullar: Xoliqulov A.N. - SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasi mudiri; Yahyoyev T.I. – SamISI, "Iqtisodiy tahlil va statistika" kafedrasi o'qituvchisi.
10	Taqrizchilar: Usmonova D.Q.– Samarqand Davlat universiteti dotsenti, i.f.n. Yahyoyev S.I. – "Start Servis Max" MCHJ rahbari.

3

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E. Po'latov
2024 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: № BD-60410100-2.14
2024 yil "29" 08

MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILI
fanining
O`QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**400 000**	**- Biznes boshqaruv va huquq**
Ta'lim sohasi:	**410 000**	**– Biznes va boshqaruv**
Ta'lim yo`nalishlari:	**60410100**	**– Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)**

SAMARQAND – 2024

Сканировано с CamScanner

Fan/modul kodi FINSA6	O`quv yili 2024-2025	Semestr 8-semestr	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O`zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6	
1. Fanning nomi	Semestr	Auditoriya mashg`ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Moliyaviy hisobot tahlili	8-semestr	90	90	180

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o`qitishdan maqsad – Fan iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatini tahlil etishning nazariy va uslubiy asoslari, iqtisodiyot sub'ektlarining buxgalteriya balansini tahlil etishning konseptual asoslari, ularning to'lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy uslubiy asoslari, iqtisodiyot sub'ektlarining iqtisodiy nochorligini aniqlash uslubiyoti, marjinal foyda kontributsiyasi va uning omilli tahlili, iqtisodiyot sub'ektlarini kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy asoslari kabi ustuvor masalalarini qamrab oladi.

Fanning vazifasi – Mazkur fanni chuqur o'rganish iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning samarasi va natijaviyligi yuzasidan joriy va istiqbolli, zamonaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ularni amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

3

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. Moliyaviy hisobot tahlilining nazariy asoslari.

Moliyaviy holat tahlilining predmeti, ob'ekti, maqsadi, mazmuni, prinsiplari va uni amalga oshirish bosqichlari. Investitsiya qarorlari va kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektning bo'lg'usi pul oqimiga, xo'jalik yurituvchi sub'ektga ishonib topshirilgan resurslarga va uning majburiyatlariga, rahbar organlarning ishiga baho berishda moliyaviy hisobot tahlilining muhimligi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati, moliyaviy ahvoli va undagi o'zgarishlarni tahlil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar va ularning axborotga bo'lgan extiyojlari:tahlil sub'ektlari, ularning qiziqishlari va manfaatlari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektining moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni tahlil etishning metodologik asoslari. Moliyaviy hisobot tahlilida qo'llaniladigan usullar: gorizontal, vertikal, trend, koeffitsientlar, qiyosiy, omilli tahlil. Moliyaviy holat

4.

V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- xo`jalik sub'ektlari, ularning xo`jalik-moliya-tijorat faoliyati uzluksizligi; iqtisodiy hodisa va jarayonlar, ularning samarasi, natijasi haqidagi, aktivlarning doiraviy aylanuvchanligini ta'minlashda; axborotlar oqimini shakllantirish; axborotlarni qayta ishlash va tahliliy xulosalarni shakllantirish; moliyaviy tahlilning zaruriy va muhim jihatlari haqida tasavvurga ega bo`lishi;
- xo`jalik sub'ektlari faoliyatini moliyaviy tahlil qilishning asosiy tamoyillarini; moliyaviy tahlil asoslari va usullarini; xo`jalik sub'ektlarida moliyaviy tahlil ishlarini tashkil qilishni; tahlil uchun kerakli manbalarni to`plash va ulardan foydalana olishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- xo`jalik sub'ektlarining operatsion faoliyatiga baho berish; xo`jalik sub'ektlarida xarajatlar tahlili va budjetlashtirish; xo`jalik sub'ektlarining moliyaviy holatiga baho berish; foyda va rentabellik ko`rsatkichlarini tahlil qilish; xo`jalik sub'ektlari kreditga layoqatlik holatiga baho berish; tarmoqlarda tahlil xususiyatlari bo`yicha ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak;
- turli shakldagi moliyaviy tahlil ishlarini tashkil qilish; tahlil natijalarini rasmiylashtirish; yo`l qo`yilgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish; foydalanilmagan imkoniyatlarni ko`rsatib berish; iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish malakalariga ega bo`lishi kerak.

5.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalarh;
- jamoa bo`lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

6.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to`la o`zlashtirish, tahlil natijalarini to`g`ri aks ettira olish, o`rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo`yicha yozma ishni topshirish.

7. **Asosiy adabiyotlar:**

1. Мельник М.В., Поздеев В.Л. Экономический анализ: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020.-261 ст.
2. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. T: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2020.-588 b.
3. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T: Iqtisod-Moliya. 2019.-736 b.

Сканировано с CamScanner

ularning samaradorligini tahlili to'g'risida bilishi va ulardan foydalana olishi;

- moliyaviy hisobot tahlilini tashqil etish bosqichlari, tamoyillari hamda natijalarini umumlashtirish;
- iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatini tahlil qilish;
- iqtisodiy nochor korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilish;
- iqtisodiyot sub'ektlarining kreditga layoqatliligini tahlil qilish;
- iqtisodiyot sub'ektlari moliyaviy holatini reyting baholash.

Amaliy mashulot mavzularida fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Amaliy mashulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- ✓ Moliyaviy hisobot va hisob ma'lumotlari tahlili.
- ✓ Moliyaviy hisobot tahlili vazifalari.
- ✓ Moliyaviy hisobot tahlili va buxgalteriya hisobi.
- ✓ Hisobning maqsadi, shartlari va standartlari, ularning tahlildagi ahamiyati.
- ✓ Moliyaviy hisobot tahlili instrumentlari va usullari.
- ✓ Moliyaviy hisobot – korxona moliyaviy holat tahlili asosi.
- ✓ Joriy aktivlar tahlili.
- ✓ Boshqa aktivlar tahlili.
- ✓ Kreditorlik majburiyatlari tahlili.
- ✓ Xususiy kapital tahlili.
- ✓ Mejkooperativ investitsiyalar tahlili.
- ✓ Foyda va zararlar hisoboti tahlili.
- ✓ Aksiya foydaligi tahlili:hisob-kitoblar va baholash.
- ✓ Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot tahlili.
- ✓ Baho o'zgarishining moliyaviy hisobotga ta'sirining tahlili.
- ✓ Auditor xulosalari: mazmuni va belgilari.
- ✓ Moliyaviy hisobot tahlilining asosiy bo'limlari.
- ✓ Likvidlik tahlili.
- ✓ Pul oqimining tahlili va moliyaviy bashoratlash.
- ✓ Kapital tarkibi uzoq muddatli to'lovga qobillik tahlili.
- ✓ Investitsiya foydasi va aktivlardan foydalanish tahlili.
- ✓ Faoliyat natijaviyligini tahlili.
- ✓ Foydani bashoratlash va baholash.

Moliyaviy hisobotni kompleks tahlili.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

tahlilini tashqil etishning muhim jihatlari va qoidalari. Moliyaviy holat tahlili natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish tartibi.

2-mavzu. Moliyaviy axborotlarni taqdim etish.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning konseptual asosi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning pul mablag'larini ko'paytirish va natijaga erishish qobiliyatini baholash, iqtisodiy qarorlar qabul qilishda moliyaviy hisobot tahlilining axborot ta'minoti. Buxgalteriya balansi, Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar. Moliyaviy hisobotlarning elementlari: aktivlar, xususiy sarmoya, majburiyatlar, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy natijalar.
Moliyaviy axborotlarni shakllantirishda hisobtamoyillarining tutgan o'rni va qo'llanilishi. Moliyaviy hisobotlar tahlilidagi uzviylik va ketma-ketlik: moliyaviy hisobotlarni halqaro standartlarga transformatsiyalashuvi va tahlil. Xo'jalik sub'ektining moliyaviy ahvoli va undagi o'zgarishlarni tahlil etishning muhim kamchiliklari. Moliyaviy axborotlar va ularni taqdim etish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

3-mavzu. Buxgalteriya balansi va moliyaviy holat tahlili.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning rahbari tomonidan resurslarni boshqarish natijalariga baho berishda buxgalteriya balansi va moliyaviy holat tahlili. Buxgalteriya balansini muhim elementlari: aktivlar, kapital va majburiyatlar. Buxgalteriya balansini gorizontal, vertikal va trend tahlili. Moliyaviy barqarorlik tahlili. Buxgalteriya balansi likvidligi va to'lov layoqatini tahlili. Iqtisodiy nochorlik tahlili. Ish aktivligini tahlili. Buxgalteriya balansi va moliyaviy holat tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

4-mavzu. Korxona aktivlari tahlili.

Uzoq muddatli hamda joriy aktivlar tahlili, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, operatsion, investitsion, moliyaviy faoliyat tahlili. Korxonaning debitorlik qarzlari tahlili. Tovar moddiy zaxiralar tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

5-mavzu. Korxona passivlari tahlili.

Korxonaning o'z hamda qarz mablag'lari tahlili, ustav kapitali, qo'shilgan capital, rezerv kapitali hamda taqsimlanmagan foyda tahlili, korxonaning muddati o'tgan hamda davo muddati o'tgan kreditorlik qarzlari tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

6-mavzu. Foyda va zararlar tahlili

Xo'jalik sub'ektining moliya xo'jalik faoliyati natijaviyligini baholash va tahlil. Tushum-xarajat-natija olaqadorligini tahlili. Aktivlar, tushum, foyda ko'rsatkichlarining o'sishini baholash. Foyda va zararlarning tarkibiy tahlili: marjinal foyda tahlili; asosiy faoliyat natijasini tahlili; soliq to'loviga qadar natija tahlili; sof foyda tahlili; rentabellik tahlili. Moliya bozoridagi faoliyat natijaviyligini tahlili. Foyda va zararlar tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

7-mavzu. Korxona daromadlari tahlili

Korxonada sof tushum hamda yalpi tushum tahlili, asosiy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar, moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hamda

Сканировано с CamScanner

favqulotda foyda tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

8-mavzu. Korxona xarajatlari tahlili

Korxanada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi tahlili, sotish xarajatlari tahlili, ma'muriy xarajatlar hamda boshqa davr xarajatlari tahlili, foiz ko'rinishidagi xarajatlar, favqulotda zararlar hamda salbiy kurs farqi tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

9-mavzu. Pul oqimlari tahlili va uning kutilishlarini bashoratlash

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashhamda tahlil etishning zaruriy jihatlari, o'ziga xos xususiyatlari. Pul mablag'lari kirimi va chiqimi bo'yicha ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili. Pul oqimlarining to'g'ri va egri usuldagi tahlili. Pul oqimlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar va ularni tahlili. Bo'lajak pul oqimlarini bashoratlash. Pul oqimlari tahlili va ularni maqsadli boshqarish yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

10-mavzu. Korxonaning operatsion faoliyat bo'yicha pul oqimi tahlili

Korxonaning ta'minot, mahsulot ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlari bo'yicha pul oqimi harakati tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyat bo'yicha pul oqimi tahlili

Korxonaning qimmatli qog'ozlarni sotib olishi, uning harakati, samaradorligi, kiritilgan investitsiyalarning holat, harakat va samaradorlik ko'rsatkichlari, investitsiyalarning boshqa maxsus ko'rsatkichlari tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

12-mavzu. Korxonaning moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimi tahlili

Korxonaning emissiya qilingan qimmatli qog'ozlari harakati, olingan kredit hamda qarzlarga hisoblangan hamda to'lab berilgan qarzlar miqdori, emissiya qilingan qimmatli qog'ozlar samaradorligi tahlili yuzasidan ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

13-mavzu. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida o'z mablag'lari manbasining tahlili.

Xususiy kapital (o'z mablag'lari) to'g'risidagi hisobot va uning tarkibiy birliklari: ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), sotib olingan o'z aksiyalari hamda boshqa xususiy kapital elementlari. Xususiy kapital tarkibi, tuzilishi va dinmamikasi tahlili. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z mablag'lari bilan ta'minlangan uzoq muddatli va joriy aktivlari, sof aktivlar qiymatining tahlili. Xususiy kapital samaradorligi tahlili. Xususiy kapital (o'z mablag'lari manbai) tahlili bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

14-mavzu. Investitsiyalar va investitson faoliyat tahlili

Investitsiyalar va investitson faoliyat tushunchasi. Investorlar va investitsion faoliyat sub'ektlarining manfaatlari. Kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo'yicha qilingan xarajatlarni moliyaviy hisobotlarda aks etishi. Investitsion faoliyatning moliyaviy tahlili. Investitson faoliyat samaradorligini baholash usullari. Xo'jalik sub'ektining investitson jozibadorligini tahlili. Qimmatli qag'ozlarga kiritilgan investitsiyalar tahlili.

Boshqa korxonalarga kiritilgan investitsiyalar tahlili. Xosilaviy kimatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar tahlili. Innovatsion jarayonlarning korxona faoliyat samaradorligiga ta'siri, ularni baholash va tahlil qilish. Investitsiyalar va investitson faoliyat tahlili bo'yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

15-mavzu. Moliyaviy hisobotlar tahlili asosida xo'jalik sub'ektlari moliyaviy holatiga kompleks baho berish.

Moliyaviy holatni kompleks baholash uslubiyoti. Xo'jalik sub'ektlari moliyaviy holatiga kompleks baho berishda o'rganiladigan ko'rsatkichlar tizimi. Xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy va moliyaviy salohiyati samardorligini oshirish yuzasidan moliyaviy holatga kompleks baho berish. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxona moliyaviy holatini reyting baholash. Korxonaning moliyaviy, xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari. Moliyaviy hisobotlar tahlili asosida xo'jalik sub'ektlari moliyaviy holatiga kompleks baho berish bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

16-mavzu. Moliyaviy hisobotlarni tahlil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularning dasturiy ta'minoti

Moliyaviy hisobotlar tahlilida axborot texnologiyalarning foydalanishning muhim jihatlari. Moliyaviy hisobotlar tahlilining dasturiy ta'minoti va ulardan foydalanish imk oniyatlari. Moliyaviy hisobotlar tahlilida Finanalitik, Audit-Ekspert, 1S: Prof. Buxgalteriya, dasturiy mahsulotlari Microsoft Excel jadval protsessori imkoniyatlaridan foydalanish. Dasturiy ta'minotlarning analitik imkoniyatlarining qiyosiy tahlili. Xo'jalik moliya faoliyati tahlilining alohida ob'ektlari va ularning dasturiy ta'minoti: investitsion loyixalar, moliyaviy rejalashtirish va x.k.. Moliyaviy hisobotlarni tahlil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda ularning dasturiy ta'minoti bo'yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

III. AMALIY MASHULOTLARLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR (Seminar mashulotlari)

- iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatini tahlil etishning nazariy va uslubiy asoslari;
- iqtisodiyot sub'ektlarining buxgalteriya balansini tahlil etishning konseptual asoslari;
- ularning to'lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy uslubiy asoslari;
- iqtisodiyot sub'ektlarining iqtisodiy nochorligini aniqlash uslubiyoti;
- marjinal foyda kontributsiyasi va uning omilli tahlili;
- iqtisodiyot sub'ektlarini kreditga layoqatliligi tahlilining uslubiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- iqtisodiyot sub'ektlari ish faolligi hamda bozor faolligini tahlili, rentabelligini tahlili;
- moliyaviy barqaror, moliyaviy xavf-xatari mavjud hamda moliyaviy nobarqaror firma va kompaniyalar faoliyatini tahlili;
- iqtisodiyot sub'ektlarida mahsulot sotishni kritik hajm darajasi va foydalilik darajasining tahlili;
- iqtisodiyot sub'ektlari mulki va manbalarining xarakatchanligi hamda

Сканировано с CamScanner